

O'QUV MASHG'ULOTLARI DAVOM ETMOQDA



O'QUV MASHG'ULOTLARI DAVOM ETMOQDA

Farg'ona viloyati hokimining 2022 yil 20 yanvardagi "So'x tumani Qal'acha mahalla fuqarolar yig'ini Javpaya massivida o'quv mashg'uloti o'tkazish to'g'risida"gi 18-11-0-Q/22-sonli qaroriga asosan, joriy yilning 25 yanvar kundan boshlab mazkur hududda "Sel, suv toshqinlarini oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishda FVDqT tarkibiga kiruvchi fuqaro muhofazasi xizmatlari kuch va vositalarini hamkorlikda harakati" mavzusida kompleks o'quv mashqi o'tkazilmoqda.

So'x tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i J. Jalolovning ma'lumotiga ko'ra, o'quv mashqi davomida bugunga qadar damba mustahkamlash tadbirida 830 m³, issiqxona tayyorlash tadbirida 2160 m³ tuproq ishlari bajarildi. Umumiy o'quv mashqi boshidan damba mustahkamlash bo'yicha 4100 m³, issiqxona tayyorlash bo'yicha 8100m³ tuproq ishlari bajarildi.

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan hududni obodonlashtirish va kukalamzorlashtirish uchun 100 dona sosna kuchati ekildi.

Mazkur tadbirlarga 4 ta ekskavator, 8 ta yuk tashish (samosval), 1 ta yuk ortish (pogruzchik), 1 ta tekislash (greyder), 1 ta suv tashish, 1 ta avtobus va 1 ta yoqilg'i-moylash mahsulotlarini tashish, jami 15 ta texnikalar hamda 44 nafar ishchi xodimlar jalb etildi.

Qarorga muvofiq o'quv mashg'ulotlar 15 fevral kuni gacha davom etadi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-03 10:32:32